



## ANALGETIKLAR. NARKOMANIYA VA UNING ASORATLARI

**Sevinch O'ralova**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Aziza Ilxomova**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Chehrona Xushvaqtova**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Annotatsiya:** *Og'riq qoldiruvchi dorilar taxlili yallig'lanish jarayoni va narkomaniyada qo'llaniladigan dorilar ta'siri, farmakologik xususiyatlari.*

**Kalit so'zlar:** *morfen, stabilizator, promedol, Steroid va nosteroidlar, aseptik yallig'lanish, marixuana, psp, apomorfin.*

**Kirish.** Analgetiklar (qadimgi yunoncha:  $\acute{\alpha}\nu$  va  $\acute{\alpha}\lambda\gamma\eta\sigma\iota\varsigma$  analgetik moddalar) og'riqni qoldiruvchi yoki kamaytiruvchi dorilar; farmakologik ta'siriga ko'ra narkotik va narkotik-mas Analgetiklar farq qilinadi. og'riq sezgisini yo'qotuvchi yoki kamaytiruvchi dorilar. Bularga kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmi turlicha dori moddalari kiradi. Og'riq qoldiruvchi dorilardan nerv sistemasiga ta'sir etib, og'riqni kamaytiruvchi moddalar (analgetiklar) asosiy o'rinni egallaydi. Narkotik analgetiklar va nonarkotik analgetiklar farq qilinadi. Narkotik analgetiklarga morfin va uning sintetik o'rindoshlari (promedol, fentanil va boshqalar) kiradi. Narkotik analgetiklar turli og'riklar, jumladan, shikastlanish, kuyish, miokard infarktida ro'y beradigan kuchli og'riklarni ham qoldiradi. Morfin markaziy nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatib, eshituv, qo'rquv, taktil sezgisini o'tkirlashtiradi, o'ziga xos gallyusinatsiyalar keltirib chiqaradi. Og'riq bilan kechadigan salbiy emotsiyalar (vahima, hayajonlanish, g'am-g'ussa va boshqalar)ni susaytirib, xavfsizlik, o'zini yengil his qilish, bamaylixotirlik tuyg'usini paydo qiladi. Narkotik analgetiklar takrortakror kabul qilinganda odam unga o'rganib, qo'msay-digan bo'lib, narkomaniyaga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun narkotik analgetiklar qat'iy hisobda turadi va ular cheklangan holda beriladi. Narkotik analgetiklarni vrach ruxsatisiz ichish taqiqlanadi.

Nonarkotik analgetiklarga kimyoviy tuzilishi turlicha bo'lgan sintetik moddalar (amidoprin', analgin, atsetilsalitsilat kislota, paratsetamol va boshqalar) kiradi. Bu xil analgetiklarning narkotik analgetiklarga kara-ganda og'riq qoldiruvchi ta'siri kuchsizroq bo'lib, asosan, nevralgia tu-sidagi og'riklarda, mialgiya (muskullar yallig'lanishi)da, tish va bosh og'rig'ida, artralgiyada ishlatiladi. Nonarkotik analgetiklar og'riq qoldirishi bilan bir qatorda isitma tushishiga ham (qarang Isitma



tushiruvchi dorilar) yordam beradi. Ko'pchilik Nonarkotik analgetiklarning yallig'lanishga qarshi ta'siri ham bor (qarang Yallig'lanishga qarshi dorilar). Vrach ruxsatisiz bu dorilarni ichmaslik kerak.

Giyohvandlik (Narkomaniya) – (yunoncha narke – karaxtlik va maniya – telbalik, jahl, shodhurralik) narkotik va narkotik ta'sirga ega bo'lgan moddalarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimo qabul qilish natijasida vujudga keladi, chunki ushbu hastalik bilan og'rikan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste'mol qilishga bog'liq. Narkomaniya organizmda chuqur uzgarishlarga sabab bo'ladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi [1-5]. Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog'lik, hotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildirishi sababli iste'mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin. Birinchi holdakishi o'z hohishidan tashqari, e'tiborsizligi natijasida narkotik moddalar humor qiladigan bo'lib qoladi. Bunday bangilik ko'pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. Sal narsa ta'sir qilib, tashvish kuchayib ketadi, ba'zi kasallar og'riq, uyqusizlik, va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o'ylamay, vrach ko'rsatmasini ham pisand qilmay, o'zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi. Bunday bemorlar odatda o'z ahvollarining yaxshilanishi dori tufayli bo'layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko'pincha ahvollarining og'irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bo'lib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bo'lmasa ham, uni qabul qilinaveradi, dorining esa organizmga narkotik ta'siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo'lib qoladi [6-11]. Narkotik modda dozasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirib borish, uni tez- tez va uzoq muddat qabul qilish narkomaniyaga olib keladi. Ikkinchi hol ongli ravishda ayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o'rganishdir. Narkomaniyaga odatda o'zini tiya bilmagan, ruhan zaif, irodasi kuchsiz, birovlariga taqlid qiladigan, humorini tarqatishdan boshqa narsani bilmaydigan, o'ta hudbin kishilargina beriladi. Bunday kishilar o'z mayillariga qarshi yurolmaydilar. shuning uchun ularning kayf qilishga moyilliklari kuchli bo'ladi. bangilik avj olib ketadi. Bu kasallikka uchraganlarda hastalik juda og'ir kechib, odatda kutilmagan yomon oqibatlarga olib keladi. Bangilikka muhtalo bo'lganlar narkotik moddalarni qayta -qayta va ko'p miqdorda iste'mol qilgisi kelaveradi. Keyinchalik esa narkotik moddalarni qabul qilmasdan turolmaydigan, usha bo'lmasa huddi "biror narsa yetishmayotganday" bo'lib qoladi. bunday ahvoldan



qutulish va o'zini yengil his qilish uchun yana narkotik moddaga ruju qiladi. Shu tariqa narkotik moddalarga moyillik-bangilik kelib chiqadi. Bora-bora organizmda narkotik moddalarga moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, narkotik moddalar kuchini yuqotgandek bo'lib qoladi, endi u avvalgidek humor tarqatish uchun doridan ko'proq miqdorda iste'mol qilgisi keladi. Ruhiyatga alohida ta'sir ko'rsatgani tufayli morfimni birinchi psixotrop modda deb atash ham mumkin, ammo tibbiyotda faqat og'riq qoldiruvchi modda sifatida qo'llaniladi. Morfinning ruhiyatga ta'siri noxush asoratlar keltirib chiqaradi va uni qo'llashda juda ehtiyotkorlik talab qilinadi, chunki morfin eyforiya kayf beradi, takror va takror qullanib, unga o'rganib qolinadi, oqibatda giyohvandlik paydo bo'ladi, shuning uchun ham morfin psixotrop modda sifatida umuman qo'llanilmaydi. Og'riq qoldiruvchi modda sifatida juda zaruriyat tug'ilgandagina qo'llaniladi. Morfin nafas markazini susaytiradi. Moddaning davolovchi miqdori nafas markazi va karotid koptokchalaming uglekislotaga sezuvchanligini kamaytiradi, nafas tezligi sekinlashadi va chuqurlashadi, o'pkaalveolariga kirib chiqadigan havoning hajmi o'zgarmaydi. Morfinning miqdori oshsa, nafas sekinlashib boradi, amplitudasi qisqaradi. Nafasning susayishi tufayli bronxlar qisqarishi ortadi, chunki morfinda gistaminni ajratish xususiyati ham bor. Morfin miqdori oshgan sari nafas notekis bo'la boshlaydi, nafas markazi falajlanib, o'lim sodir bo'lishi mumkin, 2-3 yoshgacha bo'lgan bolalaming nafas markazi morfinga nisbatan sezuvchanligi kuchliroq bo'ladi, hatto moddaning davolovchi miqdorlari ham ularda gipoksiya, Inafas atsidozini keltirib chiqarishi mumkin, chunki bolalar organizmda morfin sekin zararsizlanadi hamda gematoensefalik to'siq o'tkazuvchanligi oshiqroq bo'ladi. Morfin n.vagus hamda n.oculomotorius markazlarini tonusini oshiradi, shuning uchun yurak urishi tezligi susayadi - bradikardiya yuz beradi, qon bosimi pasayadi, ko'z qorachig'i torayadi. Morfin yo'tal markazini hamda yo'tal refleksi markaziy halqalarini tinchlantiradi, qayt qilish markazi faoliyatini susaytiradi, shu bilan birga morfin markazning trigger sohasi retseptorlarini qo'zg'atib, ko'ngil aynish, qusishga olib kelishi mumkin. Bu jarayonga vestibulyar apparat ham qo'shilishi mumkin, shu tufayli bosh aylanadi. Morfin gipotalamusdagi issiqlik boshqaruvchi markaz faoliyatini susaytirib, haroratni tushiradi, gipotalamusdagi ba'zi markazi ami qo'zg'atib, diurezga qarshi gormon vazopressinning ajralishini oshiradi- diurez kamayadi. Morfin me'da-ichak faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Silliqlik mushakli a'zolarida joylashgan opiat retseptorlarga ta'sir etib, ulaming tonusini oshiradi Morfin me'da-ichak va uning sfinkterlarini tonusini oshirib, spazmogen ta'sir ko'rsatadi hamda ichak peristaltikasini kamaytiradi. Masalan, o'n ikki barmoqli ichakning boshlang'ich



bo'limi qisqarishi tufayli oshqozonning iste'mol qilingan ovqatdan bo'shishi 3-4 soat o'rniga 8-12 soatga cho'zilib ketadi. Yo'g'on ichak silliq mushak lari ham morfin tufayli qisqaradi - ichaklarda ovqat uzoq to'xtalib qoladi, ulardan suyuqlikning qayta so'rilishi oshib boradi. Oshqozon osti bezi sekretsiyasi, safro ajralishi kamayadi, bulaming hammasi qabziyatga -obstipatsiyaga (lotinchada "obstipo" - to'ldirish) olib keladi. Morfin siydik yo'llarini, qovuq sfinkteri tonusini oshiradi, siyish qiyinlashadi, bronx mushaklarining tonusi ham oshib ketadi. Morfinning spazmogen ta'siri parasimpatik nerv sistemasi tonusining oshishiga ham bog'liq. Morfin bevosita qon tomirlarga ta'sir ko'rsatmaydi, uzunchoq miyadagi qon tomir markazini susaytirib, qon bosimini biroz tushiradi, morfin tufayli ortostatik gipotenziya ro'y berishi mumkin. Morfin jarrohlardan oldin va keyin, travmalarda, kuyganda, buyrak, o't pufagi xurujlarida, kuchli og'riq bilan kechadigan kasalliklarda -miokard infarkti, xavfli o'smalar, qattiq azob beruvchi yo'talni davolashda qo'llaniladi. Morfinni 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda, qariya -larda, nafas yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda, miya suyagi shikastlanganda qo'llash man etiladi. Tug'ish davrida og'riq qoldirish uchun qo'llanilmaydi, chunki morfin platsentara to'siqdan oson o'tib, homila nafasini susaytirishi mumkin. Morfin asosan teri ostiga yuboriladi, ba'zida esa ichishga buyuriladi, me'da-ichakdan yetarlicha so'riladi. Jigarda tez parchalana boshlaydi, shuning uchun morfinni asosan parenteral yo'l orqali qo'llashga to'g'ri keladi. Yosh bolalarda morfinning so'rilishi oshqozonda boshlanadi. Morfin teri ostiga yuborilgandan keyin ta'siri 10-15 daqiqadan, og'iz orqali yuborilganda 20-30 daqiqadan keyin boshlanadi, gematoensefalik to'siqdan, ayniqsa, bolalamikidan oson o'tib, miyada yuqori miqdorda aniqlanadi. Plasenta to'sig'idan yaxshi o'tib, homila bola miyasi to'qimalarida to'planadi. Morfinning og'riq qoldiruvchi ta'siri 5-6 soat davom etadi. Jigarda tezda biotransformatsiyaga uchraydi, 10% o'zgarmagan holda, 90% metabolit - glukuronidlar sifatida siydik bilan hamda safro orqali ichakka tushib, axlat bilan organizmdan chiqib ketadi.

Giyoxvandlik vositalari bilan muomalada bo'lish, ularni iste'mol qilish shaxsni jamiyatdan ajratadi. Uning insoniy qiyofasini yo'qotishga olib keladi. Bu esa turli hil jinoyatlarni sodir qilishga zamin yaratadi. Ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan giyohvandlik vositalarini olish-sotish, ularni iste'mol qilish hollari bugungi kunda ko'plab uchrab turibdi.

Giyohvand, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish oqibatida atrofdagilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi va u odamiylik qiyofasini yo'qotadi. U giyohvandlik moddasining yangi qismiga pul topish uchun boshqa bir jinoyatni sodir qiladi, ya'ni e'tiborsiz qolgan jinoyat ketidan yangi bir jinoyat vujudga keladi. Kichik



jinoyat o'rnini kattaroq jinoyat egallaydi. Lekin ta'kidlab o'tish joizki, voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish borasida muhim choralar ko'rilmoqda. Bugungi kunda yoshlar tomonidan giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga qarshi kurash ularning oldini olish choralari asosiy mezon bo'lmog'i lozim. Bu masalada biz asosiy e'tiborimizni profilaktik, ya'ni giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga qarshi kurashish choralari qaratishimiz kerak. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish, nafaqat vakolatli davlat organlarining, balki barcha fuqarolarning burchi bo'lishini taqozo etadi.

Giyohvandlikka qarshi kurash borasida tegishli tadbir, choralar ko'rib, sezilarli natijalarga erishilganligiga qaramasdan bu muammo hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy hatti-xarakatlarni sodir qilish bilan birgalikda, giyohvandlar soni ham ortib bormokda. Buni bartaraf qilish uchun "Giyohvandlar ro'yxatida turuvchi shaxslar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik belgilanishi zarur.

Ijtimoiy xavfli va jazoga sazovor bo'lgan harakatlarda boshqa shaxslarni giyohvandlik vositalarni iste'mol qilishga jalb qilish, giyohvandlik vositalari bilan turli oldi-sotdi qilishga jalb qilish uchun ham jinoiy javobgarlikni mustahkamlab qo'yish lozimdir. Chunki, ana shunday ijtimoiy xavfli jinoyatlarga ko'proq voyaga yetmaganlarni jalb qilishadi. Oxir oqibat esa uning orqasidan zo'rlik ishlatish bilan g'arazli jinoyatlar kelib chiqadi. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinishi achinarli holdir, chunki davlatimizning kelajagi sog'lom barkamol, har tomonlama yetuk yoshlar qo'lidadir.

**Xulosa** Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish oqibatida kelib chiqadigan salbiy xodisalarga qarshi kurashishda huquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan olib boriladigan choralar yetarli emas. Agar jamoatchilik bu ijtimoiy illatga qarshi qo'tarilmas ekan, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning sayi harakati bilan kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Giyohvandlik jamiyatdagi eng xavfli illatlardan biri bo'lib hech bir jamiyat bu illat bilan kelisha olmaydi, hamda rivojlanmaydi. Narkotik moddalarni iste'mol qilish avvalambor inson avlodiga salbiy ta'sir etadi. Narkotik vosita jinsiy hujayralar rivojlanadigan bezlarga tushib urug'ni zaharlaydi. Bu zaharlash, eng avvalo homilaning nerv sistemasini rivojlantiradigan hujayralariga ta'sir qiladi, buning oqibatida xomilaning nerv sistemasi ishdan chiqadi. Bolaning aqliy rivojlanishi



orqada qolib ketishi, tutqanoq bilan kasallanishi, miya kasalligi, kasalmand, ruhiy ojizlik va boshqa bir qator kasalliklar bilan tug'ilishi mumkin.

Insonning aqliy-irodaviy faoliyatiga ta'sir etadigan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. Chunki bu vositalarni tarqatganda buning natijasida ularni iste'mol qiluvchilar soni ko'payadi, ularning irodasi susayadi, ularni olish sotish bilan shug'ullanadigan shaxslarning soni ko'payadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giyoxvandlik ijtimoiy xavfli illat sifatida asrimiz vabosi hisoblanadi. Uni tag tomiri bilan sug'urib tashlash uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish lozimdir. Bu esa o'z navbatida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olgan bo'lar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimxodjayeva N.T., Tadjeyeva X.S., Ikramova Z.A., Suleymanova G.G. Tibbiyot kimyosi
2. Лекарственные растения Узбекистана и их защита, Ташкент-1998 Халиков К., Набиев
3. Ходжиматов К. М. Оллоёров, М. Юлдашев Х. М., Шогулумов У. Ш, Лекарственные травы мазь от боли (Фитотерапия) Ташкент- 1995 <https://zira.uz>~2018.05.10
4. Саламатлик сари газета Ташкент 2019.25.05
5. Том первый Ташкент 2000 Ташкент Холматов Х.Х., Хабибов З.Х Фармакагнозия (Учебник) 1980
6. I.I. Mamadoliev., N.I. Fayzullaev, K.M. Khalikov International Journal of Control and Automation Vol. 13, No. 2, (2020), pp. 703 - 709 IJCA (Scopus)
7. Мамадолиев И.И., Файзуллаев Н.И., Юсупова С.С. Текстуальные свойства высококремниевых цеолитов полученные из навбахорского бентонита // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2021. 10(88).С 61-67.
8. I.I. Mamadoliev, N.I. Fayzullaev. Optimization of the Activation Conditions of High Silicon Zeolite // International Journal of Advanced Science and Technology IJAST Journal. Vol. 29, No. 03, (2020), pp. 6807 – 6813 (Scopus)
9. N. Fayzullayev., I.Mamadoliev //Study of methods of chemisorption purification of hydrogen sulfide in natural gases with natural sorbent// E3S Web of Conferences 401, 04052 (2023)
10. Н.И.Файзуллаев, И.И.Мамадолиев. Юкори кремнийли цеолитнинг фаолланиш шароитини мақбуллаштириш //Научный вестник Самаркандского государственного университета. 2019. № 3(115).С 8-12.
11. Mamadoliev Ikromjon Ilkhomidinovich. Study Of The Sorption And Textural Properties Of Bentonite And Kaolin // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences Scientific journal 2019. № 11–12. С 33-38.